




ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



THE DEVELOPMENT OF THE HISTORICAL AND PRACTICAL PROCESSES OF DUTOR'S PERFORMANCE ON THE KHOREZM OASIS

Guzal Igamovna Muminova

senior lecturer

Uzbek National Music Art Institute named after Yunus Rajabi
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: heritage, art, instrument, national music, Khorezm, history, spirituality, dutar, skill, melody, Juft saz, Goltuq saz.

Received: 28.06.24

Accepted: 30.06.24

Published: 02.07.24

Abstract: In Uzbek musical culture, Khorezm musical performance, among other local styles, is distinguished primarily by its extremely bright tone and special dynamism. This article also reflects the distinctive local customs and traditions of ancient Khorezm, one of the major cultural and musical centers of the peoples of Central Asia.

In particular, we are talking about the historical and practical processes of using the musical instrument dutor, as well as about which people have so far presented their skills of playing this instrument to the people, contributed to the development of musical culture and creative activity.

DUTOR IJROCHILIGINING XORAZM VOHASIGA DOIR TARIXIY VA AMALIY JARAYONLARI TARAQQIYOTI

Guzal Igamovna Muminova

katta o'qituvchi

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: meros, san'at, cholg'u, milliy musiqa, Xorazm, tarix, ma'naviyat, dutor, mahorat, kuy, Juft soz, Go'lтуq soz.

Annotatsiya: O'zbek musiqa madaniyatida Xorazm musiqiy ijrochiligi, o'zga lokal uslublar orasida, avvalo, o'zining o'ta yorqin tusi va alohida jo'shqinligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo xalqlarining katta madaniy-musiqiyl o'choqlaridan biri bo'lgan ko'hna Xorazmning o'ziga xos mahalliy udum va an'analari musiqa janrida ham o'z aksini topgan.

Xususan, dutor cholg‘usining tarixiy va amaliy jarayonlariga, shuningdek, hozirgi davrgacha qanday shaxslar bu cholg‘uda o‘z mahoratini xalqqa taqdim etganligi, musiqiy madaniyat va ijodiy faoliyat rivojiga hissasini qo‘sghanligi haqida so‘z yuritilgan.

РАЗВИТИЕ ИСТОРИКО-ПРАКТИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ИСПОЛНИТЕЛЬСТВА ДУТОРА НА ХОРЕЗМСКОМ ОАЗИСЕ

Гузаль Игамовна Муминова

старший преподаватель

*Узбекский национальный институт музыкального искусства имени Юнуса Раджаби
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: наследие, искусство, инструмент, национальная музыка, Хорезм, история, духовность, дутар, мастерство, мелодия, Жуфт саз, Голтук саз.

Аннотация: В узбекской музыкальной культуре Хорезмское музыкальное исполнительство, среди других локальных стилей, отличается, прежде всего, своим чрезвычайно ярким тоном и особой динамичностью. В данной статье отражены и самобытные местные обычай и традиции древнего Хорезма, одного из крупных культурно-музыкальных очагов народов Центральной Азии.

В частности, речь идет об исторических и практических процессах использования музыкального инструмента дутор, а также о том, какие люди до настоящего времени представили народу свои навыки игры на этом инструменте, способствовали развитию музыкальной культуры и творческой деятельности.

KIRISH

O‘zbek musiqa madaniyatida Xorazm musiqiy ijrochiligi, o‘zga lokal uslublar orasida, avvalo, o‘zining o‘ta yorqin tusi va alohida jo‘shqinligi bilan ajralib turadi.

Tarixiy manbalardan ma’lumki, Xorazm diyori ham qadimiy va, shu bilan birgalikda, o‘rta asr davrlarida butun Markaziy Osiyo xalqlarining katta madaniy-musiqiy o‘choqlaridan biri bo‘lgan. Ko‘hna Xorazmning o‘ziga xos mahalliy udum va an’analari barcha turmush jabhalarida o‘z aksini topganligini ham e’tirof etish lozim.

Bunday o‘zgacha xislatlar, asosan, shu zamin musiqasining janr tarkibida, jumladan, suvora, maqom yo‘llari, dostonchilik, xalfachilik, raqs kuylarida kuzatiladi. Shuningdek, bu musiqaning kuy-ohanglari hamda usullari tabiatida mavjud bo‘lgan musiqiy cholg‘ulari – ijrochilikda sezilarli darajada o‘z aksini topadi.

Jumladan, Xorazmda qadimdan mayjud bo‘lgan bir qator olatlar (cholg‘ular)dan **dutor o‘zining xalqchilligi va mukammalligi bilan xalq orasida katta obro‘ va e’tiborga ega bo‘lgan.** Deyarli aytim yo‘llari shu cholg‘u jo‘rligida ijro etilgan.

Shu bois dutor cholg‘usining tarixiy va amaliy jarayonlariga, shuningdek, hozirgi davrgacha qanday shaxslar bu cholg‘uda o‘z mahoratini xalqqa taqdim etganligi, musiqiy madaniyat va ijodiy faoliyat rivojiga hissasini qo‘sghanligi haqida to‘xtalib o‘tsak. Shu bilan bir qatorda, o‘tgan ustozlarning bugungi davrda ijod qilib kelayotgan izdoshlari haqida ham so‘z yuritsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

ASOSIY QISM

Tarixiy manbalarga va arxeologik topilmalarga tayangan holda, dutorning qadimiyligidan darak beruvchi dalillar Qo‘yqirilganqal’ a (meloddan oldingi IV-III asrlar)dan topilgan ikki torli cholg‘ularning, keyinchalik dutor, do‘mbra va qomuz shaklida takomillashganligini ko‘rsatish mumkin. Natijada, ushbu cholg‘ular asosan o‘zanlar, oshiqlar va baxshilarining jo‘rnavoz cholg‘usi sifatida qo‘llanilgan.

VIII-IX asrlarda suyakka ishlov berish san’ati keng rivojlangan. Xorazmshohlar davriga kelib ushbu hunar yanada rivoj topib, suyak kesuvchi va unga ishlov beruvchi ustaxonalar vujudga kelgan. U yerda (Urganch shahrida) pichoq, qilich, qamchilarning dastalariga va asosan cholg‘ularning dastalari, pardalari va kosaxonalariga suyakdan kesib hamda kuydirib bezalgan naqshlar bilan chiroyli ishlov berilgan.

Ikki torli cholg‘ular ayrim sharq xalqlarida turlicha nomlangan. Masalan, “**XII asrga kelib dutor, do‘mbra ozarbayjonlarda “Juft soz” yoki “Go‘ltuq soz” deb nomlangan cholg‘u sifatida shakllangan.”**”[1]

Boshqa ma’lumotlarga qaraganda, XV asrning ikkinchi yarmida bitilgan Mavlono Zaynulobidin al-Husaynining A.Navoiyga bag‘ishlangan “Musiqiy ilm va amaliyot qonuni” risolasida aytishicha: “...o‘sha zamonda kvarta intervali oralig‘ida sozlanuvchi, 11 pardaga ega bo‘lgan dutor tavsiflanadi. Pardalar arab alifbosi harflari bilan belgilangan.”[2]

Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” risolasida dutor cholg‘usining tuzilishi haqida shunday ma’lumotlar keltirilgan: “**Dutor chalish tanbur chalishg‘a qaraganda yengil bo‘lgani uchun bu cholg‘u xalq orasida tanburga ko‘ra ko‘brak chalinadir. Buning dastasi 7.0-7.5 detsimetrgacha bo‘lib, kosasi 2.0x4.5 gachadir. Pardasi ba’zi o‘runlarda o‘n uch, ba’zi o‘runlarda o‘n to‘rttadir.**”[3]

Shu navbatda, dutor ijrochilik uslubi haqida so‘z yuritsak. Dutorning xarragi past bo‘lganligi sabab ayrim dutorchilar chalgan paytda o‘ng qo‘lini dutor qopqog‘iga tekkizib dutor ohangining shirasini qochiradilar. O‘tgan asrda yashab ijod etgan Samarqandlik mashhur hofiz va dutorchi Hoji Abdulaziz Abdurasulov qo‘lini qopqoqga urmay chalish uslubi bilan elga manzur bo‘lgan.

Bizgacha yetib kelgan ma'lumotlardan biz aynan Xorazm dutori boshqa xalqlarga mansub dutorlardan, xususan, mahalliy xududlarda yasaladigan dutorlardan ham – hajmi, torlari va ijro uslubi bilan farqli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Xorazm dutori kosaxonasining hajmi nisbatan kichikligi, dastasi biroz ingichka va kaltaroqligi bilan Farg'ona vodiysi va Toshkentda rasm-rusum bo'lgan an'anaviy dutordan farq qiladi.

Mahalliy-an'anaviy dutor ijrochiligining kasbiy, jumladan sof cholg'u yoki maqomlarga mos chalish uslubi ham muayyan o'xshashlik bo'lganligi bilan bir qatorda o'zaro bir munkha farqli tomonlari ham mavjud.

Xorazm dutori haqida batafsilroq gapiradigan bo'lsak, bu cholg'u qanday ijro etilgan, kimlar tomonidan, qanday uslubda va sharoitlarda ijro qilingan kabi savollar biroz mulohazaga tortadi.

B.Matyoqbovning "Xorazm doston ijrochiligining zaxrat sahifalari" kitobida yozilishicha: "**Xorazm dostonchiligidida ikki xil dutor qo'llanib, ularning birisi kalta dastali (uzunligi 970-1040mm), ikkinchisi uzun dastali (bo'yи 1300mm va undan ortiq) dutorlardir**" – deyilgan.[4]

Ma'lumki, dutor cholg'usi asosan tut yoki o'rik daraxti yog'ochidan yasaladi. Bu yog'och bo'laklari qadimdan "soz" deb atalgan. Bu sozlar bir necha yillar davomida toblangan, ya'ni, ular avvaliga qazilgan quduq devorlariga o'rnatilgan. Keyinchalik quduq buzilib bu sozlarni uzoq yillar mobaynida soya joyda quritishgan.

Ayrim manbalarda tandir qurilgan vaqtida sozlar eng tagiga o'rnatilib quritilgan degan ma'lumotlar ham uchraydi. Ana shundan keyin bu sozlar cholg'u yasash uchun tayyor deb hisoblanar edi. Chunki bu jarayondan o'tgan sozlardan yasalgan cholg'u ham issiqqa, ham sovuqqa, yomg'irlarga ham bardosh bera olardi.

Xorazmda dutor cholg'usining ijrochilik uslubi o'ziga xos bo'lib, o'ng qo'l zarblari bir tekis rez usulidagi uzlusiz-davomiy ijrosi bilan boshqa vohalarga mansub ijrochilik uslubdan ajralib turadi. Shuningdek, ayrim hollarda va maxsus dutor cholg'usi uchun bo'lgan muayyan kuylarda har bir kuchli hissasini bo'rttirib, o'ng qo'lning to'rt barmog'i va asosan jimjilog'ini qopqoqqa tekkizib – tirnab, o'rib chertish asosiy ijro xususiyatlaridan hisoblanadi.

Ammo ijodiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosaga ham kelishimiz mumkin. Xorazm dutor ijrochilik maktabiga xos bu zarbda o'ng qo'l aplikaturasini yoshi ulug' ustozlar ijrolarida kuzatsak, o'ng qo'l barmoklari orasida ko'rsatkich va jimjiloq barmoqlar nisbatan oldinroq chiqib turadi. Rez qilib aylantirilganda bu holat yuzaga keladi, ya'ni (\wedge -pastga, \vee -tepaga zarb): jimjiloq(\wedge) ko'rsatkich(\wedge) bosh barmoq(\wedge) bosh barmoq(\vee) ko'rsatkich(\vee). Be *rez* uzlusizlikni ta'minlaydi va yumshiqriq eshiriladi, shu bilan birgalikda jimjiloq va/yoki ko'rsatkich barmoq bilan tirnash ijrochining mahoratiga va asarga mos kerakli tovush sadosini chiqarishga bog'liq. Aynan Shuxrat Razzoqov bilan ijodiy suhbatimizda: "Men ko'rsatkich barmoq bilan tirnayman" [5.] - dedi.

Ijro uslublarida bu holatdan tashqari yana bir zarb ko‘rinishini tasvirlab o‘tishni joiz deb bildik. O‘ng qo‘lning 4ta barmoq oralarini biroz ochib birin-ketinlik bilan pastga zarb urish – bu **arpedjio** deyiladi. Va aynan bu zarb dutor ijrochiligida hozirgi kunda odatiy tusga aylandi. Bu esa biroz muammoli vaziyatdir. Xuddi fortepiano cholg‘usida har birakkord arpedjio qilib ijro etilmaganidek, dutor cholg‘usida ham arpedjio zARBining o‘z o‘rni bor albatta. Xorazm dutor ijrochilik maktabi namoyandasi Shuxrat Razzoqov arpedjio zARBini 4chi va 3chi (4-barmoqqa nisbatan biroz ichkariga bukilgan) barmoqlar bilan pastga urib ijro qilishlari guvohi bo‘lamiz. Dutorning o‘ng qo‘l zarblari Xorazmda “Dast” deyiladi. Zarblar o‘z ichida kuy va usul bo‘laklarini murakkab va eng jozibali jihatlarini birlashtirgan.

Keksa sozandalarning aytishiga qaraganda, doston nomalariga jo‘r bo‘luvchi doira ham usulni dutor zarblaridan o‘rganar ekan. Nomalarning kuy tuzilishi keng va tezkor rivojlanganligidan baxshi dutorning ijro imkoniyatlaridan to‘la foydalangan.

Garchi musiqashunoslar dostonchilarni birinchi navbatda qo‘shiqchi baxshi, undan keyin esa cholg‘uchi sozanda deb hisoblashsada, oshiq va baxshilar cholg‘uda ijro qilish mahoratiga katta e’tibor qaratishgan.

Mulla Bekjon Rahimxon o‘g‘li va Muhammad Yusuf Devonzodalarning “Xorazm musiqiy tarixchasi” kitobida yozilishicha: **“Dutor sozining rivojlanishi va inqirozini ikki davrga bo‘lish mumkin: Birinchi davr Ko‘hna Urganch shahrining obod zamonlaridirki, bu zamonlarda dutor anchagina rivoj topdi. Bu davrda yetishib chiqqan dutorchilardan mashhur Yusufbekni ko‘rsatishimiz mumkin. [6]**

Bunday deyilishining boisi shuki, Yusufbekni Xorazmdagi avvalgi musiqashunoslardan deb hisoblashadi. Chunki u xalq orasida soz bilan bog‘liq suhbatlar, munozaralar o‘tkazib turar edi. Ustozning o‘zi soz ilmida o‘ta mahoratli bo‘lgan va majlislar o‘tkazganda Ko‘hna Urganchning sozanda va go‘yandalari u yerda kun davomida soz va suhbatdan bahramand bo‘lishgan. Yusufbek esa ularga dutor chalib berar ekan. Dutor nag‘malari shu tariqa xalq orasida tarqalgan.

Ikkinci davr Sayid Muhammad Rahimxon va Muhammad Rahimxon zamonlariga to‘g‘ri kelib, bu davrda dutorga e’tibor kuchaygan va bir qancha mutaxassis dutorchilar yetishib chiqqan: **“Xivalik Avaz Juma, Xo‘ja Nazar Kurt ismli dutorchilar o‘z zamonasining mumtozi bo‘lib yetishdilar. Mazkur Xo‘ja Nazar Kurtdan Hazorasplik Pahlavon Boy va Hazoraspning Miton mavzesidan Bobojon Miton kabi shaxslar dutorchilikni o‘rganadilar. Bobojon Mitondan Usmonjon va Yoqub Dorchilar mashq oladilar.”**[7]. Ismlari aytilgan sozandalar o‘z ijrolari bilan xalq ichida dutor cholg‘usiga bo‘lgan mehrni yanada ziyoda qiladilar.

Yangi bir dutor nag‘malari asoschisi, xalqqa dutorni yanada tanitgan baxshi sozanda – Siyav baxshidir. Bu rivojlanish davrida, ya’ni dutor nafaqat baxshilarning jo‘r bo‘luvchi cholg‘usi, balki ko‘pchilik aholining eng sevimli cholg‘usi bo‘lganligi sabab, dutor uchun maxsus kuylar turkumi

va maqomlar yaratildi. Bu maqomlar xozirgi davrgacha yetib kelib, “*Dutor maqomlari*” deb yuritilib kelmoqda.

Shu bois, uzoq tarixiy silsila davomida dutor ijrochiligining har bir qatlami o‘ziga xos an’analar bilan boyib bordi. Ayniqsa, ijodiyot bilan bog‘liq mumtoz namunasi soz ustalari amaliyotida yanada takomillashib, rivojlanib xozirgi davrgacha yetib keldi.

Har bir majlis yo tadbir xalq sozanda-yu bastakorlar tomonidan yaratilgan yangi-yangi asarlar bilan jozibali edi. Bu asarlarning qaysidir biridan ilhomlangan mutrib, o‘zi ham shu kabi asar yaratishga intilar edi. Buni xalq sozandalarining ijodiyotidagi *o‘xshatma ijodiyot* deymiz, yoki ijodyotning *nazira* uslubi.

Bu ijodiyot mumtoz musiqaning shakllanishida juda ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Chunki, har bir turkumli asar mazmun jihatidan, shakl jihatidan bir-birini to‘ldiruvchi va davom etuvchi bo‘lishini taqozo etadi. Har bir ijodkor buni asosiy vazifa qilib belgilaydi.

Shu bois zamonlar o‘tib yig‘ilgan musiqa merosimizga nazar solsak, bir g‘oyaga asoslangan nechta-nechta alohida asarlar bunyodga kelganligini guvohi bo‘lamiz. Bu asarlar o‘z zamonasining yetuk musiqashunoslari tomonidan tartibblashtirilganda va tasniflashtirilganda qanchadan qancha turkumlar bunyodga kelishi muqarrardir.

Bajarilgan ishlarga murojaat etar ekanmiz, biz o‘tmishda alohida “Dutor maqomlari” deyishimizga arzilik turkumli musiqiy namunalar yaratilganligini guvohi bo‘lamiz. Buni biz Xorazm xalqini o‘tmish hayoti dutor ohanglarida o‘z aksini topgan zabardast meros sifatida qabul qilishimiz lozim.

Xorazm musiqasi haqida yozilgan tarixiy manbalarlar orasida tanbur chizig‘iga asoslangan “Xorazm maqomlari” kitobi yozma, monumental va amaliy manba sifatida buyukdir. “Xorazm maqomlari” kitobi tarkibida “Dutor maqomlari” uchraydi.

Bu kitob orqali va xozirgi zamonamizda tabulatura tizimini o‘rganib, undagi kuylarni zamonaviy nota ko‘rinishiga o‘tkazayotgan va bu ishga ilmiy-amaliy yondashib qo‘l urgan xorazmlik maqomshunos Rustam Boltaev (PhD, Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universitetining katta o‘qituvchisi)dir. Bu ish, o‘z o‘rnida, tadqiqot masalasidir.

XX asrda Xorazm dutor yo‘llarining amaliy ijro uslubi rivojiga Nurmamat Boltaev, Yusuf Jabbor, Sharif Botir, Otajon Qo‘smon, Sulton Gulak (Sobirov)lar benazir hissalarini qo‘sishgan. Ammo bu ijro yo‘llar shu kunga qadar faqat magnit tasmalarda saqlanib kelgan.

Aynan bu masala bo‘yicha qo‘yilgan birinchi qadam G.Muminovaning loyixasi asosida, “Shveytsariya hamkorlik va rivojlanish agentligi” bilan hamkorlik Granti natijasida 2006 yil R.Boltaev muallifligida “Dutor maqomlari” kitobi chop etildi. Zamonaviy nota ko‘rinishidagi asarlar o‘quv dasturlariga kiritilib, amaliy tatbiq etilmoqda.

XULOSA

Xorazm dutor ijrochilik an'analarini chuqurroq o'rganish va kelajak avlodga yetkazish xozirgi zamonamizning dolzARB masalasidir. Ana shu masalani yanada to'liqroq yoritish maqsadida qilinayotgan har bir ishimiz yosh ijrochilarni ma'naviy – axloqiy jixatdan yetuk va yuksak darajadagi aqliy salohiyat egasi qilib tarbiyalashda va ilmiy izlanishlarida qo'l keladi.

Har bir vohaga xos ijrochilik yo'llarimiz esa yuksak ma'naviyatimizdan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Matyoqubov B. Xorazm doston ijrochiligining zarxat sahifalari. Xorazm, 1999. – 17 b.
2. Rasultoyev J.K. O'zbek dutor ijrochiligi. Toshkent: O'qituvchi, 1997. – 6 b.
3. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent: Fan, 1993. – 28-29 b.
4. Matyoqubov B. Xorazm doston ijrochiligining zarxat sahifalari. Xorazm, 1999. – 18 b.
5. Razzoqov Sh. Shaxsiy suhbat, 3.03.2016.
6. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Toshkent: Mumtoz so'z, 2014. - 32 b.
7. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Toshkent: Mumtoz so'z, 2014. - 33 b.